

**Oriental Journal of Philology****ORIENTAL JOURNAL OF PHILOLOGY**

journal homepage:

<http://www.supportscience.uz/index.php/ojp/about>**TYPES OF NEGATIVE CONSTRUCTIONS IN MODERN ARABIC AND THEIR USAGE*****Nodira I. Umarova****Senior Lecturer, PhD in Philological Sciences**Higher School of Arabic Studies**Tashkent State University of Oriental Studies*[\*ndrumarova@gmail.com\*](mailto:ndrumarova@gmail.com)*Tashkent, Uzbekistan****Mukhlisa F. Zabixiddinova****1st-year Master's student**Department of Arabic Studies**Tashkent State University of Oriental Studies*[\*zabixiddinovmuhammad@gmail.com\*](mailto:zabixiddinovmuhammad@gmail.com)*Tashkent, Uzbekistan***ABOUT ARTICLE****Key words:** Modern Arabic, negative constructions, grammar, linguistics.**Received:** 08.05.26**Accepted:** 09.05.26**Published:** 10.05.26**Abstract:** This article examines and analyzes negative constructions in Modern Arabic from a linguistic perspective. It explores the means of expressing negation in the Arabic language, as well as their grammatical and semantic features. The study also identifies current issues and promising directions for the investigation of negative constructions in contemporary Arabic linguistics.**ZAMONAVIY ARAB TILIDA INKOR KONSTRUKSIYALARINING TURLARI VA QO'LLANILISH O'RINLARI*****Nodira I. Umarova****Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori PhD, katta o'qituvchi**Arabshunoslik oliy maktabi**Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti*[\*ndrumarova@gmail.com\*](mailto:ndrumarova@gmail.com)*Toshkent, O'zbekiston****Muxlisa F. Zabixiddinova****1-kurs magistranti**Arabshunoslik oliy maktabi**Toshkent davlat Sharqshunoslik universiteti*[\*zabixiddinovmuhammad@gmail.com\*](mailto:zabixiddinovmuhammad@gmail.com)

Toshkent, O'zbekiston

---

**MAQOLA HAQIDA**


---

**Kalit so'zlar:** zamonaviy arab tili, inkor, grammatik konstruksiya, tilshunoslik.

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada zamonaviy arab tilida inkor konstruktsiyalarining lingvistik jihatdan o'rganilib, tahlil qilinadi. Arab tilidagi inkor vositalari, ularning grammatik va semantik xususiyatlari ko'rib chiqiladi. Shuningdek, zamonaviy arab tilshunosligida inkor konstruktsiyalarini o'rganishdagi dolzarb masalalar va istiqbolli yo'nalishlar aniqlanadi.

---

**ТИПЫ ОТРИЦАТЕЛЬНЫХ КОНСТРУКЦИЙ В СОВРЕННОМ АРАБСКОМ  
ЯЗЫКЕ И ОСОБЕННОСТИ ИХ УПОТРЕБЛЕНИЯ**

**Нодира И. Умарова**

*Старший преподаватель, доктор философии по филологическим наукам (PhD)*

*Высшая школа арабистики*

*Ташкентский государственный университет востоковедения*

[ndrumarova@gmail.com](mailto:ndrumarova@gmail.com)

*Ташкент, Узбекистан*

**Мухлиса Ф. Забихиддинова**

*Магистрант 1 курса*

*Высшая школа арабистики*

*Ташкентский государственный университет востоковедения*

[zabixiddinovmuhammad@gmail.com](mailto:zabixiddinovmuhammad@gmail.com)

*Ташкент, Узбекистан*

---

**О СТАТЬЕ**

---

**Ключевые слова:** современный арабский язык, отрицание, грамматическая конструкция, языкознание.

**Аннотация:** В данной статье с лингвистической точки зрения исследуются и анализируются отрицательные конструкции в современном арабском языке. Рассматриваются средства выражения отрицания в арабском языке, их грамматические и семантические особенности. Также определяются актуальные проблемы и перспективные направления изучения отрицательных конструкций в современной арабской лингвистике.

---

**Kirish.** Har qanday voqelik yoki xabarning tasdig'i bo'lganidek, uning qarama-qarshi tomoni, boshqacha qilib aytganda, inkori ham, shubhasiz, o'zini namoyon qiladi. Bu ikki qarama-qarshi nuqtada turuvchi tushunchalar fan taraqqiyoti davomida turli sohalarning, shu jumladan falsafa, mantiq, psixologiyaning o'rganish manbai bo'lib kelgan. To'g'ri, tasdiq va inkor

kategoriyalari ko'p qirrali bo'lib, turli fanlar chorrahasiga joylashgan universal, umumlisoniy kategoriyalar toifasiga kiradi va u zamonaviy nazariy tilshunoslikda o'rganilishi eng muhim bo'lgan umumlingvistik kategoriya hisoblanadi, lekin har bir fan bu sermuammo masalani o'z maqsadi nuqtai nazaridan turib tahlil etadi.

Inkor kategoriyasi tabiiy tillarning universal hodisalaridan biri bo'lib, u nafaqat grammatik, balki mantiqiy, semantik va pragmatik jihatlardan ham muhim ahamiyat kasb etadi. Arab tilida inkor konstruksiyalari qadimdan nahv ilmining asosiy masalalaridan biri sifatida o'rganilgan. Zamonaviy arab tili bugungi kunda xalqaro siyosat, diplomatiya, iqtisodiyot, ommaviy axborot vositalari hamda ilm-fan sohaslarida keng qo'llanilayotgan muhim tillardan biridir. Ushbu tilning grammatik tizimida inkor konstruksiyalari alohida o'rin tutib, ular nafaqat gapning sintaktik tuzilishiga, balki mazmuniy va pragmatik talqiniga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. Zamonaviy arab tilida inkor vositalarining xilma-xilligi, ularning zamon, shaxs, uslub va kontekstga bog'liq holda qo'llanishi mazkur masalani chuqur ilmiy o'rganishni taqozo etadi. Shu bois inkor konstruksiyalarining sintaktik va funksional xususiyatlarini tadqiq etish arab tilshunosligining dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi. Mazkur maqolada mana shu masalalar yoritib beriladi.

**Adabiyotlar tahlili va metodologiya.** Zamonaviy arab tilida inkor konstruksiyalarining o'rganilishi arab tilshunosligining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu masala klassik va zamonaviy tilshunos olimlar tomonidan keng tadqiq etilgan. Xususan, klassik arab grammatikasi vakillari — Sibavayh va Ibn Hishom asarlarida inkor yuklamalari (لا، ما، لم، لن) va ularning sintaktik xususiyatlari batafsil yoritilgan. Ularning ishlarida inkor vositalarining fe'l zamonlari va gap tuzilishiga ta'siri asosiy e'tiborda bo'lgan.

Zamonaviy tadqiqotlarda esa inkor konstruksiyalari nafaqat grammatik, balki semantik va pragmatik jihatdan ham tahlil qilinmoqda. Arab tilshunosligida zamonaviy yondashuvlar asosida inkorning nutqdagi funksional xususiyatlari, kontekstga bog'liqligi va kommunikativ vazifalari keng o'rganilgan. Masalan, Tamnam Hassan tomonidan taklif etilgan nazariyalarda til birliklarining funksional tahliliga alohida urg'u beriladi.

Shuningdek, xorijiy tilshunoslikda, ayniqsa General Linguistics va Pragmatics doirasida inkor hodisasi universal lingvistik fenomen sifatida qaraladi. Bu esa arab tilidagi inkor konstruksiyalarini boshqa tillar bilan qiyosiy o'rganish imkonini beradi.

O'zbek tilshunosligida ham arab tilining grammatik xususiyatlari, jumladan inkor shakllari bo'yicha bir qator ilmiy ishlar olib borilgan. Biroq zamonaviy arab tilida inkor konstruksiyalarining funksional va kontekstual qo'llanilishi hali yetarli darajada kompleks tadqiq etilmagan.

Mazkur tadqiqotda zamonaviy arab tilida inkor konstruksiyalarining turlari va ularning qo'llanilish xususiyatlarini aniqlash maqsadida bir qator ilmiy metodlardan foydalanildi.

Tadqiqotning asosiy metodlari quyidagilardan iborat:

- Tavsifiy metod – inkor yuklamalari va konstruksiyalarining grammatik shakllari va tuzilishini aniqlashda qo‘llanildi.
- Tahliliy metod – inkor vositalarining semantik va sintaktik xususiyatlarini chuqur o‘rganish imkonini berdi.
- Kontekstual tahlil metodi – inkor konstruksiyalarining nutq jarayonidagi real qo‘llanilishini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etdi.

Tadqiqot materiali sifatida zamonaviy arab tilidagi badiiy asarlar, ommaviy axborot vositalari matnlari hamda ilmiy adabiyotlardan olingan misollar tahlil qilindi. Shuningdek, turli grammatik manbaalar asosida inkor yuklamalarining qo‘llanish doirasi va ularning funksional farqlari aniqlashtirildi.

Tadqiqot jarayonida tizimlilik va izchillik tamoyillariga amal qilinib, inkor konstruksiyalari strukturaviy va funksional jihatdan kompleks ravishda o‘rganildi.

Natijalar. Dunyo tillarida inkor asosan 2 xil usulda yasaladi:

- a) morfologik;
- b) leksik-sintaktik.

1. Morfologik usul — inkor ma’nosi affikslar (prefiks, suffiks) yoki grammatik shakllar orqali ifodalanishidir. Bunda inkor so‘z tarkibiga qo‘shimcha orqali qo‘shiladi. Misollar:

- bil- ma -di
- kel- ma –di

Bu yerda -ma inkor affiksi hisoblanadi. Arab tilidagi inkorning ifodalanishi bu usulda yasaliş xususiyatiga ega emas.

1. Leksik-sintaktik usul — inkor ma’nosi alohida leksik birlik (so‘zlar) yoki gap tarkibidagi elementlar orqali ifodalanadi. Misollar:

- Men buni emas dedim
- U yerda hech kim yo‘q
- Bu gap to‘g‘ri emas

Arab tilidagi inkor aynan mana shu leksik-sintaktik usulda yasaladi. Misollar:

- لا أكتبُ — men yozmayapman
- ما ذهبْتُ — men bormadim
- ليس الطالبُ هنا — talaba bu yerda emas

Bu yerda inkor alohida yuklamalar orqali berilgan va aynan shu jihati yuqorida aytib o‘tilgan fikrning dalilidir.

Shuni aytib o‘tish ham joizki, tilshunoslikda polinegativ va mononegativ tillar degan tushuncha ham bor bo‘lib, polinegativ til deb bir mikrokontekstda ikki va undan ortiq inkor

vositalaridan erkin foydalanish xususiyatiga ega bo'lgan tilga aytiladi. O'zbek va rus tillari tipologik nuqtai nazaridan polinegativ tillar toifasiga kiradi. Masalan:

a) Biz endi hech qachon va hech qayerda uchrasha olmaymiz.

Bu yerda "hech qachon", "hech qayerda", "uchrasha olmaymiz" so'zidagi –ma affiksi inkor vositalari bo'lib kelmoqda.

b) Men hech kimga hech qachon hech nima aytmaganman.

Bu yerda "hech kim", "hech qachon", "hech nima", "aytmaganman" so'zidagi –ma affiksi inkor vositalari bo'lib kelmoqda.

Mononegativ til — gapda inkor (negatsiya) faqat bitta inkor so'zi bilan ifodalanadigan til hisoblanadi. Ya'ni bitta "yo'q / emas" inkor elementi yetarli bo'ladi. Arab va ingliz tillari esa mana shunday mononegativ tillar toifasiga kiradi. Masalan:

• لا أذهب - Men bormayman

Bu gapda:

• لا – inkor elementi

Bu yerda faqat bitta inkor bor. Arab tilida polinegativ tillardagi kabi ikki inkor vositasi bir gapda uchramaydi. Masalan:

• ما رأيك أحدًا - Men hech kimni ko'rmadim

Bu gapda:

• ما – inkor elementi

• أحدًا – "kimdir / hech kim" (kontekstga bog'liq)

Bu polinegativlik hisoblanmaydi, chunki أحد so'zi mustaqil inkor vositasi emas.

Xususan, arab tilida gap qurilishiga ko'ra 2 xil bo'ladi:

a) Agar gap ism, ya'ni ot so'z turkumidan boshlansa ismiy jumla – الجُمْلَةُ الاسْمِيَّة deb nomlanadi. Masalan:

• O'qituvchi sinfxonada الفصل في المُعَلِّم -

b) Agar gap fe'l bilan boshlansa fe'liy jumla – الجُمْلَةُ الفِعْلِيَّة deb nomlanadi. Masalan:

• ذهب التلميذ إلى المدرسة –

Bunga qo'shimcha ravishda, arab tilida gap ma'no munosabatiga ko'ra ham 2 xil bo'ladi:

a) Har qanday to'g'ridan-to'g'ri bayon etiladigan, harakat, xususiyat yoki mavjudlikni inkor etmaydigan, oddiy darak gap bo'lib, inkor yuklamalari ishtirok etmaydigan gaplar tasdiq gaplar – الجُمْلَةُ المُثَبِّتَة deb nomlanadi. Masalan:

• جاء الطالب –

• Bugun ob-havo quyoshli – الطَّقْسُ مُشْمِسٌ الْيَوْمَ –

b) Biror bir voqea-hodisa, xususiyat yoki mavjudlikni inkor etib, tarkibida maxsus negatsiya vositalari qo'llaniladigan gaplar inkor gaplar – الجُمْلَةُ الْمُنْفِيَّة deb nomlanadi. Masalan:

Talaba kelmadi – مَا جَاءَ الطَّالِبُ

Bugun ob-havo quyoshli emas – لَيْسَ الطَّقْسُ مُشْمِسًا الْيَوْمَ

Bunday jumalarning esa o'ziga xos bo'lgan inkor yuklamalari va ularning ma'lum tuslanish, ma'nolariga oid qoidalari mavjud. Quyida bular bilan qisqacha, misollar orqali tanishib o'tamiz:

Inkor konstruksiyalari quyidagilar:

مَا, لَمْ, لَا (النَّافِيَةُ), لَنْ, لَا (النَّاهِيَةُ), لَيْسَ, إِلَّا, غَيْرُ, لَمَّا, مَا..... وَلَا... بِدُونِ

O'tgan zamon fe'lining inkorini yasashni 2 xil usulda amalga oshirish mumkin. Bunda مَا yoki لَمْ inkor konstruksiyalaridan foydalaniladi, ammo har ikkisining ham o'z qo'llanish qoidasi bor. مَا konstruksiyasidan keyin faqatgina o'tgan zamon fe'lini qo'llansa, لَمْ dan keyin esa hozirgi-kelasi zamon fe'lini qo'llash orqali ma'noda o'tgan zamon fe'linining inkori hosil qilinadi.

Masalan:

(o'tgan zamon fe'li) مَا + الْفِعْلُ الْمَاضِي

Kecha uyimdan chiqmadim – مَا خَرَجْتُ مِنْ بَيْتِي أَمْسَ

(hozirgi-kelasi zamon fe'li) لَمْ + الْفِعْلُ الْمُضَارِعُ

Kecha uyimdan chiqmadim – لَمْ أَخْرُجْ مِنْ بَيْتِي أَمْسَ

Hozirgi-kelasi zamon fe'lining inkorini yasash لَا (النَّانِيَةُ) inkor konstruksiyasi orqali sodir bo'ladi. Masalan:

(hozirgi-kelasi zamon fe'li) لَا (النَّانِيَةُ) + الْفِعْلُ الْمُضَارِعُ

Bugun uydan chiqmayman – لَا أَخْرُجُ مِنْ بَيْتِي الْيَوْمَ

Ammo مَا inkor yuklamasi hozirgi-kelasi zamon fe'li oldida kelsa, hozirgi-kelasi zamon fe'lini hozirgi zamon fe'lining inkoriga aylantiradi, masalan:

Qahva ichmayman (hozir ham, keyinroq ham ichmayman, ma'no hozirgi-kelasi zamoni anglatmoqda) - لَا أَشْرَبُ الْقَهْوَةَ

Qahva ichmayapman (aynan hozirgi vaqtda ichmayapman, ma'no hozirgi zamoni anglatmoqda) - مَا أَشْرَبُ الْقَهْوَةَ

لَمَّا inkor yuklamasi ham hozirgi-kelasi zamon fe'li oldida keladi va inkorni ifodalaydi. U "hali ham" degan ma'noni anglatadi.

Qahvani hali ichmadim (ichib bo'lmadim) - لَمَّا أَشْرَبِ الْقَهْوَةَ

Otam bozorga ketdi lekin hali qaytmadi - ذَهَبَ أَبِي إِلَى السُّوقِ وَلَمَّا يَرْجِعْ

Kelasi zamon fe'lining inkorini yasashda esa لَنْ nasb qiluvchi inkor yuklamasi qo'llaniladi.

Masalan:

(hozirgi zamon fe'li) لَنْ + الْفِعْلُ الْمُضَارِعُ

Ertaga uydan chiqmayman - لَنْ أَخْرُجَ مِنْ بَيْتِي غَدًا

Buyruq fe'lining inkorini لَا (النَّاهِيَةُ) inkor yuklamasi orqali yasaladi. Masalan:

لا (النَّاهِيَّة) + الفِعْلُ الْمُضَارِعُ (hozirgi-kelasi zamon fe'li)

لا تَخْرُجْ مِنْ بَيْتِكَ الْيَوْمَ – Bugun uydan chiqma!

Yuqorida aytib o‘tilganidek ismiy jumalarning ham o‘z inkor shaklini yasashda qo‘llaniladigan لَيْسَ/غَيْرُ/غَيْرُ/لَيْسَ kabi inkor konstruksiyalari mavjud. Masalan:

لَيْسَ + جُمْلَةٌ اسْمِيَّةٌ (Ismiy jumla)

لَيْسَ الْوَقْتُ مُنَاسِبًا لِلْخُرُوجِ – Chiqish uchun qulay vaqt emas

Tasdiq gaplarda إِلَّا inkorining qo‘llanishi:

إِنِّبَاتٌ + إِلَّا

جَاءَ كُلُّ أَصْدِقَائِي إِلَّا أَحْمَدَ

Ahmaddan boshqa barcha do‘stlarim keldi (Hamma keldi, faqat Ahmad kelmadi) –

Inkor gaplarda إِلَّا inkorining qo‘llanishi:

نَفِيٌّ + إِلَّا

الإمام البخاري لا يقول إلا الصدق

Imom Buxoriy haqdan boshqani aytmaydi (Imom Buxoriy faqat haqiqatni aytadi) –

مَا...وَأَ... (na...va na...bor) ismiy jumalardagi inkor yuklamasi

مَا عِنْدِي قَلَمٌ وَلَا كِتَابٌ – Menda na qalam va na kitob bor

مَا فِي الثَّلَاجَةِ مَاءٌ وَلَا عَصِيرٌ – Muzlatgichda na suv va na sharbat bor

Muhokama. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, inkor kategoriyasi ko‘p qatlamli tizimga ega bo‘lib, u morfologik, sintaktik, semantik va pragmatik darajalarda faoliyat ko‘rsatadi. Arab tilida inkor vositalarining o‘ziga xosligi shundaki, ular faqat ma’no o‘zgartiribgina qolmay, balki gapning grammatik tuzilishiga ham bevosita ta’sir qiladi. Masalan, ayrim inkor yuklamalari fe’lning i’robini o‘zgartiradi (jazzm yoki nasb holatiga kiritadi), boshqalari esa ism gap tarkibida xabarni mansub shaklga o‘tkazadi. Bu jihat arab tilining flektiv va morfologik jihatdan boy til ekanligini yana bir bor tasdiqlaydi.

**Xulosa.** Arab tilida tasdiq va inkor gaplarni ifodalash mexanizmlari, ularning grammatik va lingvistik spetsifikasini mukammal tushunmay turib, bu til konstruksiyalarida mukammalikka erishish qiyin. Chunki har bir inkor yuklamasi o‘ziga xos semantik va sintaktik yuk ko‘taradi. Arab tilini o‘rganayotgan har bir tolibi ilm uchun esa mana shularni chuqurroq bilish va to‘g‘ri qo‘llay olish muhim o‘rin kasb etadi. Bu mavzu tilshunoslikda faqat nazariy o‘rganish uchun emas, amaliy kommunikatsiya va arab tili orqali madaniyatlararo muloqot nuqtai nazaridan ham nihoyatda muhimdir.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abdujabborov, A. (2005). Arabic language. Arab tili. – Tashkent. – 56 p. (in Uzbek)

2. Begmatova B.M., Mutalova G.S., Kasimova S.S. (2023). The direct object and its use in Arabic language // *Boletin De Literatura Oral -The Literary Journal*, Vol. 10 No. 1. – Pp. 3601-3609. (in English)
3. Chernov, P.V. (1995). Handbook of the grammar of the Arabic literary language. *Spravochnik po grammatike arabskogo literaturnogo yazyka*. – Moscow: Vostochnaya literatura. – 473 p. (in Russian)
4. Grande, B. M. (1998). A course of Arabic grammar in comparative-historical perspective. *Kurs arabskoy grammatiki v sravnitelno-istoricheskom osveshchenii*. – Moscow: Vostochnaya Literatura. – 320 p. (in Russian)
5. Ibrohimov, N., & Yusupov, M. (1997). Arabic grammar. Arab tili grammatikasi. (Vol. 1). – Tashkent: National Encyclopedia of Uzbekistan. – 89 p. (in Uzbek)
6. Kholidov, B. Z. (1977). Arabic language textbook. *Uchebnik arabskogo yazyka*. – Tashkent: O‘qituvchi. – 120 p. (in Russian)
7. Kovalev, A. A., & Sharbatov, G. Sh. (1998). Arabic language textbook. *Uchebnik arabskogo yazyka*. – Moscow: Vostochnaya Literatura. – 265 p. (Russian)
8. Krachkovsky, I. Yu. (1950). Arabic language textbook. *Uchebnik arabskogo yazyka*. – Moscow: Vostochnaya Literatura. – 173 p. (in Russian)
9. Nosirova, M. (2003). Mahmud Zamakhshari’s “Al-Unmuzaj fi al-Nahv” treatise as a work on Arabic grammar. Mahmud Zamaxshariyning «Al-unmuzaj fi-n-nahv» risolasi – arab tili grammatikasiga oid asar. (Abstract of candidate dissertation). – Tashkent. – 26 p. (in Uzbek)
10. Rasulov, R. (2010). General linguistics. *Umumiy tilshunoslik*. – Tashkent: Fan va Texnologiya Markaz. – 264 p. (in Uzbek)
11. Rustamov A.E. (2025). Features of conditional constructions in the Arabic language. Arab tilida shartni ifodalovchi konstruktsiyalar xususiyatlari // *Oriental Journal of Philology*, Vol 05, Issue 03. – Pp. 561-567. DOI: <https://doi.org/10.37547/supsci-ojp-05-03-64> (in Uzbek)
12. Rustamov, A. (2020). Syntactic properties of conditional prepositions (hurufu-sh-shart). Shart yuklamalari (hurufu-sh-shart)ning sintaktik xususiyatlari. *Eastern torch*, 1(1), 108-116. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/eastern-torch/article/view/13273> (in Uzbek)
13. Talabov, E. (1993). Arabic language. Arab tili. – Tashkent: Uzbekistan Publishing House. – 5131 p. (in Uzbek)
14. Xasanov, M., & Abzalova, M. (2016). Arabic language lessons. Arab tili darslari. – Tashkent. – 83 p. (in Uzbek).